

UDK:330.115:378

**SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI**

**Abdullaeva Dilora Kuysunovna**

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv  
va texnologiyalar universiteti, i.f.n., dotsent*  
**d.abdullayeva@tift.uz**

**Nurullaeva Shaxnoza Toxtasinovna**

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv  
va texnologiyalar universiteti v.b. dotsent*  
**s.nurullayeva@tift.uz**

**ANNOTATSIYA.** *Mazkur maqolada mamlakatimizning innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ob'ektiv zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari o'zaro nazariy-qiyosiy taqqoslangan, mehnat samaradorligi tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan, mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mehnat samaradorligi, mehnat sifati, mehnat sarfi, jonli mehnatning tejalishi, mehnat unumdorligi, innovatsion iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, munosib mehnat, mexanizm, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik.*

**ANNOTATSIYA.** *В данной статье с научно-теоретической точки зрения обоснована объективная необходимость совершенствования организационно-экономического механизма повышения производительности труда на промышленных предприятиях в условиях перехода к инновационной экономике нашей страны. Также проведено теоретическое и сравнительное сопоставление показателей эффективности труда, производительности труда и эффективности производства на промышленных предприятиях, дано авторское определение понятию производительности труда, разработаны научно-теоретические предложения по совершенствованию*

организационно-экономического механизма повышения производительности труда.

**Ключевые слова:** производительность труда, качество труда, трудоемкость, сохранение живого труда, эффективность труда, инновационная экономика, экономический рост, достойный труд, механизм, социально-экономическая эффективность, организационно-экономическая эффективность.

**ABSTRACT.** *In this article, the objective necessity of improving the organizational and economic mechanism of increasing the labor efficiency in industrial enterprises in the conditions of the transition to the innovative economy of our country is explained from a scientific and theoretical point of view. Also, indicators of labor efficiency, labor productivity, and production efficiency in industrial enterprises were theoretically and comparatively compared, the concept of labor efficiency was given an author's definition, and scientific and theoretical proposals were developed to improve the organizational and economic mechanism of increasing labor efficiency.*

**Key words:** labor efficiency, labor quality, labor consumption, saving live labor, labor productivity, innovative economy, economic growth, decent labor, mechanism, socio-economic efficiency, organizational-economic efficiency.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish tizimiga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng ustuvor vazifalarining biri sifatida “...iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘shishni ta’minlash” [1] deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, bugungi kun talablariga javob beradigan sanoat mahsulotlari va xizmatlarini yaratish orqali mamlakatimizning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etilishi, ishlab chiqarishni rivojlantirishda har doim katta ahamiyat kasb etgan.

Iqtisodiyotning hozirgi bosqichida rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotida innovatsion faoliyat muhim o‘rin egallaydi. Birgina, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sanoatining rivojlanib borishi natijasida jahon miqyosida yaratilayotgan jahon Yalpi mahsulotning qariyb 5,5 foizi aynan shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida sezilarli salmoqga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin, masalan, Janubiy Koreyada 11,8 foizdan ziyodni, Shvesiyada 7,0 foizni, AQShda esa 6,8 foizni tashkil etadi. Shuni qayd etish lozimki, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli yanada oshmoqda, ular iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylandi.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish ishlab chiqarish munosabatlari, xo‘jalik yuritish

mexanizmi, shakllari va mehnatni tashkil etish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shuni qayd etish lozimki, mamlakatimizning innovatsion rivojlanish strategiyasida “2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirish”[2] vazifasi belgilangan. Jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bir tekisda davom etmasdan, balki quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablik tomon yuksalish tamoyillariga asoslanadi.

Har bir zamon iqtisodiyoti o‘zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tuzilmasiga asoslanadi. Hozirgi rivojlanish bosqichi zamonaviy boshqaruv va innovatsiyaga asoslangan samarali iqtisodiyotni barpo etishga asoslangandir. Aynan mazkur ikki jihat har bir davrning iqtisodiy rivojlanishida o‘zining izini qoldiradi va rivojlanish darajasini belgilab beradi. Ushbu bosqich iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini vujudga keltirib, ya’ni rivojlanishning bir bosqichidan keyingi takomillashgan innovatsiyaga asoslangan bosqichga o‘tishiga moddiy hamda texnik-texnologik asos yaratadi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlarini tadqiqot qilish jarayonida tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, kompleks baholash, guruhlash, mantiqiy va taqqoslama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi tushunchasini tahlil qilishdan oldin, samaradorlik tushunchasining mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. “Samaradorlik” tushunchasi keng ko‘lamli, umumiy iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinib, o‘z ichiga ilmiy, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa natijalarni qamrab oladi. Samaradorlik tushunchasi murakkab tushuncha ekanligini e’tirof etib, ilmiy adabiyotlarda (efficiency – inglizcha) (efficientia – lotincha) bir nechta tarjimaviy talqinga ega, birmuncha keng tarqalgan “efficiency” iborasini “samaradorlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati va operativlik”[3] kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin.

Samaradorlik tushunchasi bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilgan holda ular o‘zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Masalan, V.V.Novojilov tomonidan samaradorlikka quyidagicha ta’rif berilgan: “...samaradorlikni umumiy tarzda foydali samarani (natijadorlikni) olish uchun sarflarga nisbatida ifodalanadi”[4], L.M.Chistov tomonidan: “samaradorlik – bu vaqt birligida ishlatiladigan resurslar birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot ko‘rinishida foydali xossalarni konsentratsiyasidir” deyilgan[5].

Mamlakatimizning etuk olimlari ham samaradorlik tushunchasi bo‘yicha o‘zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Xususan, akademik Q.X.Abdurahmonov tomonidan quyidagicha ta’rif beriladi: “Samaradorlik tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi” [6], A.O‘lmasov, A.Vahobov tomonidan: “Samaradorlik resurs sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi, ya’ni bu nima sarflab

nimaga erishganligini ko'rsatadi"[7], B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardaev tomonlaridan esa: "...samaradorlik – bu, sodir bo'layotgan biror iqtisodiy jarayonning qanday natija bilan yakunlanganini ifodalaydi"[8] deb izoh beriladi. Ushbu yondashuvlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish munosabatlarida erishiladigan iqtisodiy manfaatdorlik va ijtimoiy nafillik ko'zlangan maqsadga nisbatan ortiq yoki ustunligida namoyon bo'lishini ifoda etadi. Samaradorlik tushunchasini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng qo'llanilib, ishlab chiqarish va mehnat faoliyati samaradorligi tushunchalariga izoh berishda ham qo'llash imkonini beradi.

Hozirgi kunga qadar iqtisodchi olimlar o'rtasida sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini tashkiliy-iqtisodiy baholash uslubi to'g'risida yagona fikr yo'q. Ko'pchilik iqtisodchi olimlar "mehnat samaradorligi" va "mehnat unumdorligi" tushunchalarini bir-biriga o'xshash tushunchalar, deb ta'kidlashadi. Masalan, V.I.Ivanisskiy, I.N.Maksimenko va N.N.Ushakovalar[9] tomonidan: "mehnat samaradorligi bajarilgan ish hajmi uchun mehnat sarflarini kamaytirish yoki yaratishni ko'paytirish bilan bog'liq mehnat unumdorligi orqali tavsiflanadi" degan fikrni ilgari suriladi. A.O'lmasov va A.Vahobovlar tomonidan: "mehnat unumdorligi mehnat natijasini, mehnat samaradorligini anglatadi"[7] deb e'tirof etishgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish samaradorligi sanoat korxonalarida mehnat, moddiy, tabiiy resurslarining mahsulot ishlab chiqarishda qanchalik darajada foydali ishlatilishini ifodalaydi. Uning darajasini kompleks ko'rsatkichlar yordamida hisoblash mumkin. Ularda eng muhimi bu moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar, mehnat unumdorligi, fond qaytimi, mahsulot sifati va tannarxi kabi ko'rsatkichlarning har bir-birligiga teng yaratilgan mahsulot hajmidir. Ishlab chiqarish samaradorligining mehnat unumdorligidan farqi shundaki, samaradorlik ishlab chiqarish jarayoni doirasidan chetga chiqib iste'mol davrining ham samarasini ifodalaydi.

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi mehnat samaradorligining muhim ko'rsatkichidir, uning natijasi mehnat mahsuli tarzida (vaqt yoki qiymat birliklarida) ifodalanadi. Mehnat samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq, nafaqat mehnat natijasini, balki mehnat hajmi va uning sifatini ham namoyon etadi. Mehnat sifati deganda, ikki ma'noni tushunmoqlik lozim. Tor ma'noda: mahsulot sifatini, keng ma'noda: ijtimoiy foydaliligi, mehnat natijalarining qo'yilgan talablarga javob berishini ifodalaydi. Mehnat samaradorligining yana bir muhim jihati shuki, u o'z o'rnida mehnat resurslaridan foydalanishdagi tejamkorlikni, inson mehnat faoliyatining sermehnatligini ham ifodalaydi. Ushbu bir-biridan iqtisodiy foydalanish darajasi bo'yicha farq qiluvchi kategoriyalarni o'zaro farqli jihatlarini quyidagi 1-jadvalda tasniflaymiz.

Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi ko'rsatkichini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq etilishida V.V.Novojilovning hissasi katta, uning fikricha, "...mahsulotning foydali xususiyati uning soniga bog'liq emas. Mahsulot foydali yoki keraksiz, zarur yoki ortiqcha bo'lishi mumkin. Ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, mehnat hajmining oshishiga olib kelishi mumkin, ammo bu uning samaradorligiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi" [4]. O.I.Volkov tomonidan mehnat samaradorligi tushunchasiga "...vaqt birligi davomidagi bajarilgan mehnat natijasi uchun mehnat sarflarini qisqartirish bilan bog'liq mehnat mahsuldorligi", A.I.Rofe tomonidan "mehnat samaradorligi bu mahsuldorlik, insonlarning ishlab chiqarish faoliyatidagi samaradorligi"[11] deb ta'rif berilgan.

## 1-jadval

### Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va mehnat samaradorligini qiyosiy taqqoslash [16]

Farqlash jihatlari bo'yicha	Ishlab chiqarish samaradorligi	Mehnat unumdorligi	Mehnat samaradorligi
Mehnat faoliyati sohasi	Moddiy boyliklar ishlab chiqarish	Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnat	Yalpi foydali mehnat (moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish)
Yaratilayotgan moddiy qiymat va xizmatlar hajmiga ta'siri	Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi jang'arish va joriy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli moddiy qiymatlarni o'sishiga olib keladi.	Mehnat unumdorligining o'sishi jamiyatning barcha moddiy qiymatlarini oshiradi	Mehnat samaradorligining o'sishi moddiy qiymatlar bilan birga xizmatlar hajmining ham oshishiga olib keladi
<b>Natijaviylikni o'lchash ko'rsatkichlari</b>			
<b>Ishlab chiqarish samaradorligi</b>		<b>Mehnat unumdorligi</b>	<b>Mehnat samaradorligi</b>
<b>Umumiy iqtisodiyot darajasida</b>			
YaIM yoki yakuniy mahsulot hajmining moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bir-birligiga nisbati	Moddiy sohalarida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning shu sohada ish bilan band bo'lganlarning umumiy soniga nisbati		Yaratilgan yakuniy mahsulot hajmining iqtisodiyot tarmoqlaridagi mehnat sarfi va mehnat sifatiga nisbati
<b>Tarmoq darajasida</b>			
Tarmoq tomonidan ma'lum mahsulotga nisbatan yalpi ehtiyojlarning qondirilish darajasi. Natura shaklidagi ishlab chiqarilgan yoki sof mahsulot xajmining foydalanilgan barcha resurslarning har bir-birligiga nisbati	Tarmoqda ishlab chiqarilgan normativ sof mahsulotni tarmoq sanoat ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lganlarning umumiy soniga nisbati		Tarmoqdagi mahsulotning tarmoqda mehnat sig'imi va mehnat sifatiga nisbati
<b>Korxonada darajasida</b>			
Mehnat unumdorligi, fond qaytimi, mahsulot sig'imi, tannarx, rejaning bajarilishi, rentabellik ko'rsatkichlari	Sof mahsulot hajmining har bir sanoat ishlab chiqarish personali ishchisiga nisbati yoki mehnat sarflarining bir mahsulot birligiga nisbati		Yaratilgan sof mahsulot va ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning (sifatiy ko'rsatkichlar bilan) tejab qolingan ish vaqti va jonli mehnatga nisbati

Iqtisodiy lug'atlarda ham mehnat samaradorligiga "...insonlarning mehnat natijadorligini tavsiflaydi. Minimal mehnat sarfi evaziga yuqori samara natijasini ifoda etadi", "mehnat resurslaridan foydalanish tavsifi"[12] kabi ta'riflar berilgan. Ushbu berilgan ta'riflarda mehnat samaradorligi tushunchasiga tor nuqtai-nazardan yondashilgan, agar berilgan ta'riflarni alohida olgan holda kurib chiqadigan bo'lsak, O.I.Volkov: "mehnat samaradorligi mehnat sarflarini qisqartirish bilan erishish", A.I.Rofe: "mehnat samaradorligini insonning faqat ishlab chiqarish jarayonidagi natijasi", V.F.Potudanskaya: "mehnat samaradorligi resurslardan oqilona foydalanishdagi natija", L.A.Kostin: "mehnat samaradorligi qulay mehnat sharoitini ifoda etishi", A.S.Volchyonkova: "mehnat samaradorligi - ishchilarning mehnat potensialidan foydalanish natijadorligini ifoda etadi"[13],

I.T.Abdukarimov va boshqalar tomonidan: “mehnat samaradorligi uning natijaviyligi, ya’ni ma’lum vaqt birligida bitta xodimga (bir mehnat salohiyatiga) to’g’ri keladigan natija bilan o’lchanadi”[8] deb izoh berilgan. Iqtisodiy lug’atlarda ham mehnat samaradorligiga “...insonlarning mehnat natijadorligini tavsiflaydi. Minimal mehnat sarfi evaziga yuqori samara natijasini ifoda etadi”[14], “mehnat resurslaridan foydalanish tavsifi”, “ishchilar tomonidan korxonaga (tashkilot)ga qo’shgan mehnat hajmi ko’rsatkichi”[15] kabi ta’riflar berilgan.

Boshqa bir guruh olimlar esa, mehnat samaradorligi noishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish) sohasiga tegishli, deb fikr yuritishadi, chunki bu sohada qilingan sarflar uzoq muddat o’z natijasini bermasa ham, lekin vaqti kelganda shunday natija beradiki, buni hech kanday miqdoriy va sifat o’lchovlar bilan o’lchab bo’lmaydi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnat samaradorligi unumli mehnat bo’lib, inson hayoti uchun kerakli moddiy sharoitlar yaratadi, uni ko’rsatkichlarining ishini esa, hayot sharoitlarida yanada yaxshilaydi, shuningdek, jamiyat a’zolarining ma’naviy rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Akademik Q.X.Abdurahmonov mehnat samaradorligining unumli mohiyatini: “mehnat samaradorligini aniqlashda uning natijalarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi sarflar bilangina emas, balki barcha mehnat sarflari (barcha mehnat resurslari sarflari) bilan taqqoslash, ya’ni moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ish bilan band bo’lganlarni, o’qishdagilarni, uy xo’jaligi va shaxsiy yordamchi xo’jalikda ish bilan band bo’lganlarni e’tiborga olish”[6], deb tavsiflaydi.

Mehnat samaradorligining umumiy tavsifidan kelib chiqadigan bo’lsak, u mohiyatan mehnat unumdorligi kabi olingan natijalarning sarflarga nisbati orqali xarakterlanadi, ya’ni bu ikki ijtimoiy va iqtisodiy kategoriya sanoat korxonalarida mehnat sarflariga nisbatan tushumni aks ettiradi, ammo ular turli darajada, turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuini ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu o’ziga xoslikdan kelib chiqqan holda kategoriyaning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat, birinchidan, mehnat samaradorligi bevosita unumli sarflarni ifodalaydi; ikkinchidan, moddiy mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat sarfi va sifatini; uchinchidan, tobora chuqurlashib borayotgan mehnat taqsimoti jarayonini; to’rtinchidan, texnologik darajani; beshinchidan, inson mehnat qilishligi uchun yaratilgan munosib mehnat sharoitini; oltinchidan, ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi hisobini ifodalaydi.

Mehnat samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida o’ziga xosligi shundaki, buning mohiyati va mazmunini oddiy miqdoriy va sifatiy ko’rsatkichlar bilan iqtisodiy baholab bo’lmaydi. Mehnat samaradorligini nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan ham baholash kerak. Masalan, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy mehnat munosabatlarini yaxshilash bo’yicha tadbirlarni oladigan bo’lsak, bu tadbirlarni iqtisodiy ko’rsatkichlar bilan o’lchab, samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazaridan baholash mumkin.

Noishlab chiqarish sohasidagi mehnatni unumli deb bo’lmasa-da, uning ahamiyatini alohida ekanini ta’kidlash lozim. Demak, mehnat samaradorligini

alohida bir sohaga tegishli emasligi, balki iqtisodiyotning barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini ham qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning bergan ta'rif va tasniflari asosida mehnat samaradorligi kategoriyasi mohiyatini yoritishda uning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini e'tiborga olishimiz zarur. Shu boisdan, innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida munosib mehnat tamoyillari va milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olgan holda sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi tushunchasiga keng miqyosli mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, mehnat samaradorligi – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, munosib mehnat tamoyillari asosida ishlab chiqarish (noishlab chiqarish) jarayonida mehnat sarfini kamaytirib mehnat sifatini oshirish evaziga yuqori mehnat natijadorligiga erishishdir. Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi ishchi-xizmatchilarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tomonlarini ifodalaydi, uning natijalarini esa miqdoriy va sifatiy jihatdan tavsiflaydi. Mahsulot birligida mehnat sarfining kamayishi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish rentabelligining oshishi hamda iqtisodiy o'sishga erishishda mehnat samaradorligini oshirish muhim omillardan biridir.


Mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tavsiflashda mexanizm tushunchasini anglash muhim hisoblanadi. Iqtisodiy va texnik majmua tadqiqotlarda mexanizm atamasi keng tadqiq qilinadi. "Mexanizm" atamasi grekcha "mechane" so'zidan olingan bo'lib "mashina" [12] degan ma'noni anglatib, bir yoki bir necha harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan va bu harakatlar boshqa harakatlarni yuzaga keltiruvchi maqsadli tizimdir. Mexanizm tavsifidan kelib chiqqan holda, sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ob'ektiv zaruriyatini keltirish mumkin.

Mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ob'ektiv zaruriyatini uch yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin: birinchi yo'nalish, bu sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini asosiy mezon va ko'rsatkichlarini hamda baholashda tizimli yondashuvlar asosida sanoat faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda o'rganish bilan bog'liqligi; ikkinchi yo'nalish esa, sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini ekonometrik baholash; uchinchi yo'nalish, sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq qilish bilan bog'liq. Ushbu uchta yo'nalish ham bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning asosiy maqsadi munosib mehnat tamoyillariga amal qilgan holda sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm quyidagi tashkiliy vazifalarni o'z ichiga oladi: birinchidan, zamonaviy boshqaruv uslublaridan foydalanish; ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash; uchinchidan, mehnatni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan baholash imkonini beradigan tizimni yaratish;

to'rtinchidan, mehnat intizomini mustahkamlash va ish vaqti fondidan oqilona foydalanish; iqtisodiy vazifalarga: birinchidan, mehnatga munosib moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirish; ikkinchidan, xodimlarni korxonaning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligi oshirishidan manfaatdorlik darajasini oshirish; uchinchidan, xodimlarning turmush farovonligini yaxshilash.

Mehnat samaradorligini oshiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirishda mehnatni tashkil etishdagi element(unsur)lar va vazifalarni hisobga olgan holda mexanizmning maqsadi o'z aksini topishi lozim. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarini alohida tashkiliy va iqtisodiyga bo'lgan holda harakat tarkibi ifoda etildi (1-chizma).



**1-chizma. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini asosiy elementlari[16]**

Ushbu 1-chizmadagi sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlarining o'zaro munosabatlarini o'rganish nafaqat mantiqiy-funksional, balki eng muhimi mexanizmning asosiy hususiyatlarini to'liq ochishni ta'minlaydi. Bunda mexanizm qo'yilgan maqsadga erishish uchun belgilangan vazifa va tamoyillarni bajarilishini ta'minlovchi dastak sifatida amal qiladi.

Sanoat korxonalarini darajasida uni rivojlanishini asosiy tashkiliy-iqtisodiy parametrlari muvofiqligi, xususan munosib mehnat tamoyillari asosida mehnat



samaradorligini oshirish maqsadlari hamda ustuvor yo‘nalishlari muvofiqligi uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi kerak.

## **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Mamlakatimizning innovatsion rivojlanishga o‘tish sharoitida sanoat ishlab chiqarish salohiyatini oshirishdagi strategiya va taktikani ishlab chiqishda mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mehnat samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi tushunchalaridan o‘ziga xos xususiyati bo‘yicha farq qilib, unumli mehnat sarfi, mehnat sifati va munosib mehnatni ifoda etadi.

Tadqiqotimizda mehnat samaradorligi tushunchasiga xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan berilgan ta’riflarni o‘rgangan holda hamda sanoatning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olib mehnat samaradorligi tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Shuni qayd etish lozimki sanoat korxonalarida mehnat samaradorligi ko‘rsatkichining oshishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligida mehnat sarfi kamayishini, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmining oshishini ta’minlaydi. Mehnat samaradorligi mehnat sarflari natijaviyligini ifoda etishini hisobga olib ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorlikni namoyon etadi. Bu samaradorlik ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari darajasini ko‘rsatib, mehnat sarfi va natijalari o‘rtasidagi munosabatni tavsiflaydi.

Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsadlari bilan korxonalarda innovatsion texnologiyalarni faoliyatga joriy etib borish, ishlab chiqarish xom-ashyosi bo‘lgan tabiiy resurslarning yangi zahira manbalarini izlab topish va foydalanish, boshqaruvning zamonaviy usullarini qo‘llash, mehnatni samarali rag‘batlantirish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishning muvofiqligi nazarda tutiladi. Ko‘p hollarda, bir vazifa boshqalariga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshmaydi. Sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli rivojlanishida mehnat samaradorligini oshirish mexanizmining asosiy elementlariga amal qilinishi muhim hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29 dekabr, № 271 (7199).
2. “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmon. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son).
3. Мюллер Д.К. “Англо-русский словарь”. М.: “Русский язык”, 1992. – с. 233-234.
4. Новожилов В.В. “Проблемы измерения затрат и результатов при оптимальном планировании” // – М.: “Наука”, 1972. – с. 56-58.
5. Чистов Л.М. “Теория эффективного управления социально-экономическими системами”. Учебник. – СПб.: “Астерион”, 2009. – с. 575.

6. Q.X.Abdurahmonov “Mehnat iqtisodiyoti”. - T.: “Mehnat”, 2004. - 398 b.
7. A.O‘lmasov, A.Vaxobov “Iqtisodiyot nazariyasi” (Darslik) (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 41-43 b.
8. B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardaev “Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili”. - S., 2007. - 154 b.
9. Иванисский В.И., Максименко Р.Н., Ушакова Н.Н. Экономика труда. – М.: Экономика, 1990. – с. 334.
10. Волков О.И. Экономика предприятия: учебник. – М.: ИНФРА – М, 1997. – с. 416.
11. Кузнесов Б.Л, Кузнесова С.Б., Андреева Ф.И. “Эффективность корпоративного развития”. – Набережные Челны: Изд-во Камской гос. нж.-экон. акад., 2005. – с. 119.
12. Большая экономическая энциклопедия. – М.:Эксмо, 2007. – с. 257.
13. G.Q.Abdurahmonova Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta’minlashni takomillashtirish: iqt.fan.dok.diss. avtoreferat. - T., 2016. - 15 b
14. J.P. Ye-M. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2006. - 213 b.
15. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. J.P. // Tahrir hay‘ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq. O‘zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 578 b.
16. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.